

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI MONITORINGINI O'TKAZISH VA UNING NATIJALARI ASOSIDA BOSHQARUV STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Ataboyev Zafarjon Raxmatullayevich

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
yetakchi mutaxassisi,
Toshkent shahridagi Puchon universiteti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida monitoring jarayonini ilmiy asosda tashkil etish hamda monitoring natijalariga tayangan holda boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishning nazariy-metodik asoslari, raqamli baholash, rivojlantiruvchi muhit, kadrlar salohiyati va jamoatchilik bilan hamkorlik kabi indikatorlar bo'yicha yondashuvlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: monitoring, reyting tizimi, boshqaruv strategiyasi, raqamlashtirish, rivojlantiruvchi muhit, kadrlar salohiyati, xalqaro standartlar, shaffoflik, innovatsion boshqaruv, jamoatchilik bilan hamkorlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются подходы к таким индикаторам, как научно обоснованная организация процесса мониторинга в дошкольных образовательных организациях и теоретико-методические основы разработки стратегий управления на основе результатов мониторинга, цифровая оценка, развивающая среда, кадровый потенциал и сотрудничество с общественностью.

Ключевые слова: мониторинг, рейтинговая система, стратегия управления, цифровизация, развивающая среда, кадровый потенциал, международные стандарты, прозрачность, инновационное управление, сотрудничество с общественностью.

Abstract: This article examines approaches to such indicators as the scientific organization of the monitoring process in preschool educational organizations and the theoretical and methodological foundations for developing management strategies based on monitoring results, digital assessment, developmental environment, human resource potential, and public cooperation.

Keywords: monitoring, rating system, management strategy, digitalization, development environment, personnel potential, international standards, transparency, innovative management, public relations.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar mazkur tizimni xalqaro talablarga moslashtirish, raqobatbardosh avlodni shakllantirish va bolalarning erta rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan. Bu jarayonning zamirida, avvalo, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya sifatiga bo'lgan ehtiyoj, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish, raqamlashtirish, ta'lim muhitini boyitish va boshqaruvni ilmiy asosda tashkil etish kabi dolzarb vazifalar turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-152-son Farmoni[1] hamda 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son[2] va 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son[3] qarorlari bilan maktabgacha ta'lim tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirildi. Bu hujjatlar maktabgacha ta'limning qamrovini oshirish, sifat ko'rsatkichlarini

takomillashtirish, pedagoglar malakasini yuksaltirish hamda zamonaviy ta'lim-tarbiya muhitini yaratish uchun mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu jarayonning mantiqiy davomi sifatida, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 28-avgustdagi "2025-2026-o'quv yilida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining reytingini shakllantirish to'g'risida"gi 316-sonli buyrug'i[4] bilan "Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti"ga qo'yiladigan talablar va baholash mezonlari" tasdiqlandi. Mazkur baholash mezonlari maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy, ilmiy asoslangan modeli bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyati 4 asosiy yo'nalish bo'yicha baholanadi: ta'lim-tarbiya jarayoni, boshqaruv va kadrlar salohiyati, rivojlantiruvchi ta'lim muhiti, jamoatchilik bilan hamkorlik. Reyting tizimining joriy etilishi ta'lim sohasida yuzaga keladigan muammolarni aniqlashga, ularga tezkor va ilmiy asoslangan yechim topishga, tashkilotlar faoliyatining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda baholash jarayoni raqamlashtirilgan platforma orqali amalga oshiriladi, bu esa hujjatlar aylanishini soddalashtiradi, subyektivlikni kamaytiradi va natijalarni aniq, real va ishonchli qiladi.

Tizimning ilmiy-metodik asoslanganligi uning samaradorligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlar (OECD ECEC Quality Framework[5], UNESCO ECCE Monitoring Model[6], NAEYC Standards[7] baholash tizimi) shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini oshirish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatni muntazam baholash, natijalarni tahlil qilish va bu asosda boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. "Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti"ga qo'yiladigan talablar va baholash mezonlari"da belgilangan ko'rsatkichlar aynan mana shu global tendensiyalarga mos keladi.

Shuningdek, mazkur reyting tizimi O'zbekistonning ta'lim tizimini xalqaro maydonga integratsiya qilishda ham muhim rol o'ynaydi. U maktabgacha ta'limda sifat kafolatini joriy etish, boshqaruvni zamonaviy "data-driven management" (ma'lumotga asoslangan boshqaruv), "outcome-based leadership" (natijaga yo'naltirilgan liderlik), "continuous quality improvement" (sifatning uzluksiz takomillashuvi) tamoyillari asosida olib borishga xizmat qiladi[8]. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruvning an'anaviy nazoratga asoslangan modelidan ilmiy tahlilga tayangan, strategik rivojlanishga yo'naltirilgan boshqaruv tizimiga o'tishga imkon yaratadi.

Kengroq ma'noda olib qaralganda, "Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti"ga qo'yiladigan talablar va baholash mezonlari maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sifatini oshirish, pedagoglar malakasini rivojlantirish, ota-onalar ishonchini mustahkamlash, ta'lim muassasalarining mas'uliyatini kuchaytirish va ularni uzluksiz yangilanib borishga undovchi mexanizmdir[4]. Tizimning joriy etilishi orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyati bir maromdagi nazorat emas, balki ularning rivojlanish dinamikasini baholash, faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishning barqaror tizimi shakllantirilmoqda.

Monitoring natijalari asosida boshqaruv strategiyasi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida monitoring tizimi – bu ta'lim jarayonining sifatini aniqlash, boshqaruv samaradorligini baholash va rivojlantirishni rejalashtirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladigan ilmiy-analitik jarayondir. Monitoring natijalari asosida ishlab chiqilgan boshqaruv strategiyasi tashkilotning bugungi holati, mavjud imkoniyatlar va ehtiyojlar asosida ilmiy asoslangan, obyektiv va istiqbolli qarorlar qabul qilishga imkon beradi.

Zamonaviy ta'lim boshqaruv nazariyalarida monitoring ma'lumotlari "boshqaruvning yuragi" (core of management) sifatida qaraladi. Chunki faktlar va dalillarga tayanmagan qaror – samarasiz, resurslarni isrof qiladigan, qisqa muddatli ta'sirga ega bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tizimida monitoring natijalari asosida ochiq, shaffof va tizimli boshqaruv strategiyasini yaratish

ta'lim sifati oshishining asosiy omilidir. Quyida monitoring natijalari asosida shakllantiriladigan strategik yo'nalishlar batafsil yoritiladi.

1. Diagnostika asosida rivojlantirish rejalarini tuzish.

Monitoringning eng muhim vazifalaridan biri – mavjud holatni aniq aks ettirishidir. Natijalar tahlili asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'zining qisqa, o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish rejalarini ishlab chiqadi.

Diagnostika quyidagilarni aniqlaydi:

- ✚ ta'lim-tarbiya jarayonidagi bo'shliqlar;
- ✚ pedagogiklarning mahorat darajasidagi farqlar;
- ✚ ta'lim muhitini sifatli tashkil etishdagi kamchiliklar;
- ✚ hamkorlikdagi sustliklar;
- ✚ boshqaruvdagi tashkilotchilik muammolari;
- ✚ bolalarning rivojlanishda orqada qolishlar.

Monitoring natijasida aniqlangan har bir muammoning asosiy sabablari aniqlanadi.

Misol uchun: Bolalarning nutq rivojlanishida ortda qolishi.

Amaliy monitoring natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning nutq rivojlanishi boshqa rivojlanish sohalariga nisbatan pastroq ko'rsatkichni tashkil etmoqda. Tahlil jarayonida ushbu holatga olib kelayotgan bir qator tizimli va tashkiliy omillar aniqlandi.

Mazkur muammoni yuzaga keltirayotgan asosiy sabablar quyidagilardir:

tarbiyachining nutq rivojlantirish metodikasi bo'yicha malakasining pastligi;
defektolog tomonidan korreksion mashg'ulotlarning yo'lga qo'yilmaganligi;
guruh xonasidagi "Til va nutq rivojlantirish markazi"ning yetarlicha jihozlanmaganligi;
ota-onalarning nutqiy rivojlanish bo'yicha yetarli pedagogik xabardor emasligi.

Yuqoridagi sabablar natijasida bolalarda quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

- ❖ so'z boyligining kamligi;
- ❖ to'liq gap tuzishda qiynalishi;
- ❖ talaffuzdagi nuqsonlar;
- ❖ muloqotga kirisha olmaslik;
- ❖ mustaqil fikrni ifodalashda cheklanganlik;
- ❖ maktabga tayyorgarlikning past darajasi.

2. Strategik rivojlantirish rejasi 4 yo'nalish bo'yicha shakllanadi:

- pedagogika,
- boshqaruv,
- ta'lim muhiti,
- jamoatchilik bilan hamkorlik.

Singapur va Finlyandiyada har bir maktabgacha ta'lim tashkilotlari yillik ish rejalarini (School Improvement Plan (SIP)) aynan monitoring natijalariga tayanib ishlab chiqadi. [9]

Monitoringga asoslangan boshqaruv strategiyasi maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirishning asosiy omilidir. Reyting tizimi orqali ta'lim jarayoni, kadrlar salohiyati, ta'lim muhiti va hamkorlik kabi yo'nalishlar standartlashtirilgan, raqamlashtirilgan indikatorlar asosida baholanadi. Bu yondashuv subyektivlikni kamaytirib, boshqaruvni ilmiy asosda tashkil etish, tahliliy qarorlar qabul qilish va ta'lim sifatini uzluksiz oshirish imkonini beradi.

Monitoring natijalari strategik rejalashtirish, pedagogik jarayonni takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda jamoatchilik ishonchini mustahkamlashda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro tajriba – Singapur, Finlandiya, Yaponiya va Kanada amaliyotlari – monitoring

va ilmiy boshqaruvning sifatini oshirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi[9]. “Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti”ga qo’yiladigan talablar va baholash mezonlari ushbu ilg’or tajribalar bilan uyg’unlashib, maktabgacha ta’limni xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-152-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 28-avgustdagi “2025-2026-o‘quv yilida davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining reytingini shakllantirish to‘g‘risida”gi 316-sonli buyrug‘i.
5. OECD. “Starting Strong: Early Childhood Education and Care Monitoring Framework”. – Paris, 2020.
6. UNESCO. “Early Childhood Care and Education Quality Standards”. – Paris, 2019.
7. NAEYC. “Program Standards and Accreditation Criteria”. – Washington, 2021.
8. OECD (2024). Quality assurance and improvement in the early education and care sector. Parij: OECD Publishing.
9. A‘zamova M.N., Sotimova B.M. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini xorijiy tajribalar asosida boshqarishga zamonaviy yondashuvlar. Republican scientific and practical conference “problems and solutions of the competency-based approach in preschool education”, may 6-7, 2025. 304-308 b.
10. Valiyeva Feruza Rashidovna, Abdunazarova Nargiza Fatxullayevna, Zakirov Alisher Akbarovich. The importance of ensuring the mental, physical, spiritual, spiritual development of educators of pre-school educational organizations. PhD. Valieva Feruza Rashidovna //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, Issue 8. July. 2021:6919.
11. Abdullayeva N.Sh. Leader competency and its specific characteristics in managing the school education system// American Journal Of Social Sciences And Humanity Research eISSN:2771-2141Pages:152-158|Crossref DOI:https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue02-23 Published Date: 2024-02-29http://theusajournals.com/index.php/ajsshr/article/view/2548
12. Abdullayeva N.Sh. Мактабгача таълимда самарали бошқарув: таълим сифати ва кўрсаткичи омили сифатида// Maktabgacha talimda sifati va samaradorlik: rivojlanish istiqbolлари: amaliyot va xorijiy tajriba" mavzusida МТТДМҚТМОИ халқаро илмий-амалий конференсиа материаллар то‘плами 4-5 декабрь 2024 йил Б 39-40